

“O‘zmilliybank” AJ “Kelajakka qadam” markazi hamda
“Toshkent shahrida “Sankt-Peterburg davlat universiteti” federal davlat budjeti oliy
ta’lim muassasasi Filiali” o‘rtasida

HAMKORLIK KELISHUVI

2025 yil 11.09

Toshkent sh.

“O‘zmilliybank” AJ “Kelajakka qadam” markazi (keyingi o‘rinlarda “Markaz” deb yuritiladi) nomidan Markaz direktori Xoshimov Elmurod Abdusattorovich bir tomondan va “Toshkent shahrida “Sankt-Peterburg davlat universiteti” federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi Filiali (keyingi o‘rinlarda “Tashkilot” deb yuritiladi) nomidan direktor Ziyadullayev Maxmudjon Djurakulovich boshqa tomondan (birgalikda “Tomonlar” deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi PQ-61-son qaroriga muvofiq yoshlarning bandligini ta’minlash, oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish maqsadida amalga oshiriladigan “Kelajakka qadam” dasturi ishtirokchilari hisoblangan holda ushbu hamkorlik to‘g‘risida kelishuvni tuzdilar.

HAMKORLIK MAQSADI

1. Tashkilot bitiruvchi talabalarining ishga joylashishiga ko‘maklashishga qaratilgan “Kelajakka qadam” Dasturini amalga oshirish bo‘yicha Markaz va Tashkilot hamkorligini yo‘lga qo‘yish ushbu kelishuvning asosiy maqsadi hisoblanadi.

HAMKORLIK YO‘NALISHLARI

2. Tomonlar hamkorlik maqsadiga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshiradilar:

- Tashkilot tomonidan Markazning hududiy bo‘linmalari uchun mashg‘ulotlar davrida tayyor jihozlangan xonalar ajratish;
- Markazning faoliyat yuritishi uchun Tashkilotning tegishli bo‘linmalari bilan zaruriy axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish;
- o‘z biznes g‘oyalarini amalga oshirish istagi bo‘lgan Tashkilotning bitiruvchi bosqich talabalarini aniqlash, ularga biznes ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘quv-treninglarni tashkil etish;
- turli sohalar bo‘yicha biznes rejalar tuzish va boshqa kredit hujjatlari to‘plamini tayyorlash bo‘yicha maslahatlar berish;
- talabalarni tayyor loyihalarni moliyalashtirish uchun "O‘zmilliybank" AJning hududiy filiallariga yo‘naltirish;
- ish beruvchilarni jalb qilgan holda bitiruvchi talabalar o‘rtasida sohalar bo‘yicha ochiq tanlovlar o‘tkazish;
- tanlov g‘oliblari uchun ish beruvchi tashkilotlar buyurtmasiga ko‘ra individual kasbiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;
- ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan yirik korxonalarning oliy ma’lumotli mutaxassislarga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;
- talabalarining ishlab chiqarish ob‘ektlaridagi amaliyotini tashkil etish, zarur hollarda, chet eldagi oliy ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli kurslarda ishtirokini ta’minlash.

HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

3. Markaz:

- Tashkilotdan olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi, umumlashtiradi va tahlil qiladi;
- o'z biznes g'oyalarini amalga oshirish istagi bo'lgan bitiruvchi bosqich talabalari uchun biznes g'oyani tayyor loyihagacha olib borish jarayonida to'liq hamrohlik qiladi;
- bitiruvchi talabalar o'rtasida "Kelajakka qadam" dasturi doirasida ishlab chiqilgan moliyaviy xizmatlar paketini keng targ'ib etadi;
- oliy ta'lim sohalari bo'yicha ochiq tanlov komissiyalarida ishtirok etadi;
- o'tkazilgan ochiq tanlov natijalariga ko'ra, individual ta'lim dasturlari (shu jumladan xorijiy) bo'yicha umumlashgan hujjatlarni moliyalashtirish maqsadida "O'zmilliybank" AJ ga taqdim etadi.

4. Tashkilot:

- o'zining barcha bitiruvchi va quyi kurs (bosqich) talabalari to'g'risida zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'liq va o'z vaqtida Markazga taqdim etadi;
- Markaz buyurtmasiga ko'ra, biznes qilish istagida bo'lgan talabalar ro'yxatini tuzadi va ular bilan uchrashuvlar, trening va seminarlar tashkil etishga ko'maklashadi;
- bitiruvchilarni ishga joylashishiga ko'maklashish maqsadida Tashkilotning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ish beruvchilarning oliy ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi;
- talabalarni sohalar bo'yicha ochiq tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlaydi;
- ish beruvchilarning buyurtmasiga ko'ra, tanlov g'oliblari uchun individual kasbiy ta'lim dasturlarini tayyorlaydi;
- ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda tasdiqlangan dasturlar asosida talabalarning amaliyot o'tashini tashkil etadi;
- moliyalashtirilgan dasturlarda ishtirok etgan bitiruvchi talabalarning salohiyatli ish beruvchi, shu jumladan, yirik korxonalarda ishga joylashishini monitoring qiladi;
- bitiruvchilarning ishga joylashishiga ko'maklashish maqsadida sohalar va hududlar kesimida kasb yarmarkalarini tashkil etadi.

ALOHIDA SHARTLAR

5. Ushbu hamkorlik kelishuvi tomonlarga hech qanday moliyaviy majburiyatlarni yuklamaydi. Hamkorlik davomida yuzaga keladigan xarajatlarni moliyalashtirish masalalari alohida shartnomalar asosida hal etiladi.

6. Hamkorlikni amalga oshirish uchun tomonlar Harakatlar rejasini tuzish va imzolash, shuningdek ushbu hamkorlik kelishuvida belgilangan vazifalarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

7. Tomonlarning hech biri boshqa tomon nomidan shartnoma yoki boshqa majburiyatlarni olishga haqli emas.

8. Har bir tomon ushbu hamkorlik kelishuvini amalga oshirish bilan bog'liq o'z harakatlari uchun javobgardir.

9. Ushbu hamkorlik kelishuvi bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

10. Mazkur hamkorlik kelishuviga tomonlar o'zaro kelishgan holda o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga haqli.

11. Ushbu hamkorlik kelishuvi bilan bog'liq har qanday nizolar Tomonlar o'rtasida maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

12. Ushbu hamkorlik kelishuvi imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'zaro kelishgan holda uni tugatish to'g'risida qaror qilguncha amal qiladi.

TOMONLARNING IMZOLARI

**“O‘zmilliybank” AJ
“Kelajakka qadam” markazi**

Markaz direktori

E.A.Xoshimov



**“Sankt-Peterburg davlat universiteti
Federal davlat budjeti oliy ta’lim
muassasasi Toshkent shahridagi filiali”**

Rektor (direktor)

M.J.Ziyadullayev



*11.09.2025 yil
№18.*